

KLARNET CHOLG‘USINI O‘RGATISHDA O‘QITUVCHINING MAHORATI

Izboskan tumani 6-sonli bolalar musiqa va san'at maktabi. Damli va Zarbli cholg‘ular bo‘limi o‘qituvchisi Abdurayimov Fahriddin Muhammadali o‘g‘li

Annotatsiya: Mazkur maqolada klarinet cholg‘usini o‘rganishda muhim bo‘lgan omillar, shu bilan bir qatorda o‘qituvchining o‘quvchiga bo‘lgan e’tibori, cholg‘u ijrochiligida ahamiyat berishi kerak bo‘lgan unsurlar yoritib o‘tilgan. Ahamiyatli jihati olimlarning nazariy qarashlari ham sharxlanib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: ijro vositalari, ifoda vositalari, ijro elementlari, ichki tuyg‘u, jismoniy harakat, ixtiyoriy harakat, ijro mahorati.

НАВЫКИ ПЕДАГОГА В ОБУЧЕНИИ ИГРЕ НА КЛАРНЕТЕ

Детская музыкально-художественная школа №6 Избосканского района. Абдурайимова Фахриддин Мухаммедали угли, преподаватель кафедры барабанных и ударных инструментов.

Аннотация: В данной статье освещены важные факторы обучения игре на кларнете, а также внимание преподавателя к ученику, элементы, которые должны быть важны при игре на инструменте. Важно отметить, что обсуждаются и теоретические взгляды ученых.

Ключевые слова: исполнительские средства, выразительные средства, исполнительские элементы, внутреннее ощущение, физическое движение, произвольное движение, исполнительское мастерство.

TEACHER'S SKILLS IN TEACHING THE CLARINET

Children's music and art school No. 6 of Izboskan district. Abdurayimov Fahriddin Muhammedali ugli, teacher of drum and percussion instruments department

Annotation: This article highlights the important factors in learning the clarinet instrument, as well as the teacher's attention to the student, the elements that should be important in the performance of the instrument. Importantly, the theoretical views of scientists are also discussed.

Keywords: performance tools, expressive tools, performance elements, inner feeling, physical movement, voluntary movement, performance skill.

Kirish.

Musiqa asbobini chalishni o‘rganish metodikasi bu musiqiy pedagogikaning bir qismidir. Eng yaxshi mahalliy va tajribasini tahlil qilish va umumlashtirish asosida chet ellik o‘qituvchilar, musiqachilar va ijrochilar, metodologiya naqshlarni o‘rganadi va shaxsiy ta’lim texnikasi. Shamol asboblarni o‘qitish usuli, yehtimol boshqalar orasida "eng yosh" texnikani bajarish, u asta-sekin shakllandi va rivojlandi. Har bir avlod musiqachilar uning rivojlanishiga hissa qo‘shdi.

Biron bir cholg‘uda chalish o‘zi oson ish emas, buning uchun katta mehnat, matonat, iroda talab qilinadi. Eng avvalo cholg‘u sozida chalishni o‘rganishni boshlashda oiladi ota-ona ko‘proq sababchi bo‘ladi, chunki ularning yaratgan shart-sharoiti bilan cholg‘u sozini o‘rganayotgan bola yaxshi muhit oraqali ijro mahoratida o‘sish seziladi. To‘g‘ri bu birdaniga bo‘ladigan hodisa va jarayo emas, hammasi asta-sekinlik bilan shakllanadi. Bu borada S.Razanovning “Klarnetda ijro etish maktabi” kitobida quyidagicha taxlil qilingan: “8,9 yosh dan boshlab klarnet cholg‘usini o‘rganishni boshlasa bo‘ladi faqat 13 yoshdan boshlab bolalarda barmoqlarining o‘sishi hisobiga kichiklik davrida to‘laqonlik cholg‘uda ijro etishni talab qilish mumkin emas.”¹

Asosiy qism.

V.N.Gerjevning fikricha har bir mohir pedagog klarnet o‘rganuvchini birinchi navbatda sog‘lom tana a‘zolariga e‘tibor qaratilishi, yurak baquvatligini, to‘g‘rirog‘i hyech qanday kassalik bilan kasallanmaganligini shu bilan bir qatorda tish a‘zolarini ham mustahqamligini hisobga olgan xolda ijrochini shu cholg‘uda ijro etishga taklif etish maqsadga muvofiq deb ta’kidlaydi.²

A.L.Fedatovning ta’kidlashicha “ijro vositalari” va “ifodali vositalar” tushunchalari ko‘p xollarda tushunarsiz bir xil ma’nolarni anglatadi degan tushuncha paydo bo‘lib qoladi ijrochida, lekin bular ikkisi ham aslida ikki xil ma’noni anglatadi. Bu so‘zlarinng bir-birini to‘ldiruvchi elementlar mavjud lekin bu degani ikkisi ham bir xil vazifani bajaradi degani emas. Ijro vositasi deganda o‘z nomi bilan ijrochidan ijro texnikasi, ijrodagi harakatlar mayda ijroviy elementlar nazarda tutiladi. Ifoda vositasida esa ijro imkoniyatlaridan kelib chiqqan xolda (jarayonning samarali tomoni) - ijrodagi texnikaning ovozi mujassamlanishi, ma’lum bir emo-semantik tarkibning tashuvchisi, texnik texnika orqali namoyon bo‘ladi, nafaqat uning mavjudligini, balki sifat va mukammallikni ham nazarda tutadi. Bu jarayonlar cholg‘u ijrochisini ichki hissiyotlaridan tortib cholg‘udagi imkoniyat darajalarini ko‘rsatib berishni to‘ldiruvchi omillar hisoblanadi.³

¹ С.Разанов. Школа игры на кларнете. Учебник. М.,1940. Ст3.

² Гержев В.Н. Методика обучения игре на кларнете с начинающими. Таганрог 2017 г. Ст 4.

³ А. Л. ФЕДОТОВ. О ВЫРАЗИТЕЛЬНЫ Х СРЕДСТВАХ КЛАРНЕТИСТА В РАБОТЕ НАД МУЗЫ КАЛЬНЫ М ОБРАЗОМ. М., 1970 г. ст 86.

A.Fedatovning “Damli cholg‘ularda ijro etish metodikasi” deb nomlangan kitobida ijro jarayonidagi harakatlar psixologik va fiziologik xolatlarni qamrab oladi bu degani ijrochidan ijodiy va jismoniy harakatlarni talab etadi. Professor V.A.Dikovning tajribalarini A.Fedatov quyidagicha izohlaydi: "har qanday cholg‘u asbobini ijro etayotgan inson bir qancha tarkibiy elementlarni bilishi talab etiladi: ko‘rish, eshitish, xis qilish, musiqiy va estetik prezentatsiyalar, ixtiyoriy harakatlar va boshqalar. Shu bilan bir qatorda ijrochi uchun damli cholg‘ularda ijro etishda til harakatini to‘g‘ri harakatlantiruvchi psixofizologik o‘yinlar ijro mahoratini oshishiga olib keladi. A.Dikovning takidlashicha musiqa ijrochilarining barchasidan samarali mehnat va iroda talab etiladi.⁴

Olimlarning fikrlarini taxlil qilgan xolda quyidagicha izohlash mumkin, har bir pedagog o‘z oldiga to‘g‘ri maqsad qo‘yish lozim, o‘qituvchi o‘quvchining qobiliyatini hisobga olgan xolda har bir o‘quvchini xarakteridan kelib chiqqan xolda yondashishi talab etiladi. Aksariyat pedagoglarda bunday salohiyat biroz oqsayotganini ko‘rishimiz mumkin. Har bir pedagog ta‘lim jarayonida yuqori malakali professional tajribaga ega metodistlarning yo‘riqnomalarini taxlil qilgan xolda amsaliyotda joriy qilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki bugungi kundi talabida har bir o‘quvchiga o‘quvchini imkoniyatidan kelib chiqqan xolda yondashilgandagina natijaga erishsa bo‘ladi. Har bir davrning o‘z olimlari bo‘lganidek har bir davrning o‘z ijrochilari ham bo‘ladi, ijrochini to‘g‘ri shakllanishiga sababchi esa uning ustozini hisoblanadi. Shunday ekan o‘qituvchining oldida turgan ulkan vazifalardan biri nixolni to‘g‘ri o‘qitishiga yordam berish va uni kelajakda jamiyatda kerakli shaxs bo‘lib shakllanishiga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatishidir.

Musiqa cholg‘ularini o‘rganishda boshlang‘ich ta‘lim sodda va o‘rganishga oson usullardan foydalanilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Dastlab o‘quvchining o‘rganish darajasini shakllantirish uchun unga cholg‘uda tovushlarni to‘g‘ri joylashuvini ko‘rsatib berib unga qiyin bo‘lmagan mashqlarni oson va qulay yo‘llar bilan o‘rgatilsa kelgusi darsga o‘quvchi bu dars jarayonida qiyinchilik sezmagani uchun dars mashg‘ulotlariga yanada qiziqib kelishiga yordam beradi. O‘qituvchining birozgina darsiga befarqligi o‘quvchini chalayotgan cholg‘usidan xafsalasi pir bo‘lishiga olib keladi. Ko‘p xollarda darsm mashg‘ulotlarida o‘qituvchi o‘quvchiga vazifa berib qo‘yib o‘zi boshqa ishlar bilan band xollari kuzatiladi, bu xollarda o‘quvchini ijro etishni nazardan qochirgan o‘qituvchi o‘quvchining savolariga to‘g‘ri deya javob berishi oqibatida, ijro jtilayotgan musiqiy tovushlar hatolikka yo‘l qo‘yilgan xolda hamda o‘quvchi o‘z hatosini to‘g‘ri deb hisoblashligi natijasida o‘quvchining o‘rganish texnikasi hatolar ko‘nikmasida shakllanib qoladi. Bunday vaziyatlar faqatgina salbiy oqibatlarga olib keladi. Kelajakda o‘quvchi o‘z o‘quvchilariga xuddi shunday tartibda

⁴ А.Федатовнинг Методика обучения игре на духовных инструментах. М., 1975 г. ст

o'rgatish metodikasini qo'llay boshlaydi, bu har bir o'sib kelayotgan cholg'u ijrochisini yuksaklikka emas pastlikka qulashidan dalolat bo'ladi.

Hulosa.

Hulosa qilib aytganda har bir o'qituvchi eng avvalo o'z kasbiga munosib ravishda halol va yurakdan vijdonan yondashsagina jamiyatda yosh nihollar to'g'ri o'sib unadi. Musiqadagi sof tovushni tinglagan va ijro etgan inson qalbida faqatgina ezgulik urug'i o'sib unadi. Agarda bu sof tovushni chiqarishda ma'suliyatli o'z kasbini fidoyi o'qituvchilari befarq bo'lsa bu tovushlar loyqalangan suv kabi sof va ziloligini yo'qotadi.

Adabiyotlar:

1. Розанов С.В. Основы методики обучения игре на духовых инструментах. М.: Музыка. - 1935.
2. Мюльберг К.Э. Теоретические основы обучения игре на кларнете.. Киев.: Музыкальная Украина. - 1975. 6. Незайкинский Е.В. Методика обучения игре на духовых инструментах. Очерки. М.: Музыка. - 1965. 7.
3. Розанов С.В. Основы методики обучения игре на духовых инструментах. М.: Музыка. - 1935.